

**AYOLLARDA BACHADON BO'YNI EROZIYASINING KELIB  
CHIQISH SABABLARI VA ZAMONAVIY DIAGNOSTIKA  
USULLARI**

***Karimova Nilufar Nabijanovna***

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyat universiteti professori*

***Hamroyeva Mohichehra Shuhratovna***

*Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyat universiteti talabasi*

***Annotatsiya:*** Tadqiqotdan kutilayotgan maqsad, bola tug'ish yoshidagi ayollarda eng ko'p uchraydigan patalogiyalardan biri bachadon bo'yni eroziyasi kasalligi bilan tanishish, kasallikning kelib chiqish sabablari, alomatlari, xavfi hamda zamonaviy diagnostika usullarini ko'rib chiqish. Izlanish davomida bugungi kunda mamlakatimizda bachadon bo'yni eroziyasini davolashning bir nechta samarali usullari tahlil qilinadi. Aytish joizki, eroziya bachadon va uning ortiqlariga infektsiya kirishiga yo'l ochadi hamda kichik tosning surunkali yallig'lanish kasalliklari rivojlanishiga sabab bo'ladi, hatto, bepushtlikka ham olib kelishi mumkin.

***Kalit so'zlar:*** chin eroziya, tug'ma eroziya, psevdoeroziya, kriodestruktsiya, elektroekstsiziya, follikulyar, papiller, aralash.

Bachadon bo'yni eroziyasi(endoservikoz,bachadon bo'yni ektopiyasi)-a'zoning vaginal qismidagi shilliq qavati yaxlitligi buzilishi,defekti yoki yaralar bilan qoplanishidir.Bu eng keng tarqalgan ginekologik kasallikklardan biri bo'lib, statistik ma'lumotlarga ko'ra har oltinchi ayoldan birida uchraydi. Bachadon bo'yni bachadonning eng pastki qismi bo'lib ,u qinga qarab chiqadi. Uning ichida servikal kanal joylashadi. Bachadon eroziyاسining eng xavfli asorati uning yomon sifatli o'smaga aylanish ehtimoli borligidir.Shuning uchun ham bu kasallikni imkon qadar tezroq aniqlash juda muhim ahamiyatga ega.

Patalogiyani keltirib chiqaruvchi bir nechta sabablar mavjud:

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

- a)gormonal buzilishlar,immunitet pastligi;
- b)hayz sikli buzilishi;
- c)jinsiy hayotning juda erta boshlanishi ,erta homiladorlik va tug'ruq;
- d)irsiyat
- e)bacterial va virusli kasalliklar;
- f)siyidik-tanosil tizimi yallig'lanishi;
- g)shaxsiy gigeyenaga amal qilmaslik;
- h)ko'p marotaba abort qilish
- i)jinsiy yo'l bilan yuqadigan infektsiyalar.

Bachadon bo'yni eroziyasi bilan bog'liq vaziyat bu kasallikning aniq belgilari yo'qligi va ko'p hollarda o'zini umuman namoyon qilmasligi bilan ajralib turadi, ammo kasallik avj olsa bemorlar o'zida quyidagi belgilarni aniqlashadi: menstruatsiyalar orasida qonli ,ba'zan esa yiringli ajralmalar ajralishi, siklning har doimidan uzoqroq davom etishi,ko'proq qon ketishi ,siyidik chiqarish vaqtida qorinning pastki qismida og'riqlar. Bunda ginekolog kasalni kolposkopiya qiladi va eroziya yuzasidan surtma olib tahlil qiladi. Kolposkopiya-bachadon bo'ynini kolposkop bilan tekshirish usuli bo'lib, kolposkop tasvirni 20-30 marta kattalashtiradigan optik vosita. Kasallikning fanga chin,tug'ma hamda psevdoeroziya kabi turlari ma'lum. Chin eroziyada ,kasalda tekshiruv olib borilsa, bosilganda qonaydigan qizil dog' ko'rindi. Bunday eroziyada zararlangan hududda yiring paydo bo'lishi mumkin. Qoida bo'yicha chin eroziya ikki hafta davom etadi, keyin biriktiruvchi to'qima bilan qoplanib psevdoeroziyaga aylanadi. Psevdoeroziyada diametri 5 millimetrga teng bo'lgan dumaloq qizil hudud ko'zga tashlanadi. Aynan shu bosqichda ginekologlar kasallikni aniqlaydilar. Eroziya bezlari ma'lum bir sekretsiyani chiqaradi va to'playdi,u oxirigacha chiqmaganligi sabab har kuni kistalar paydo bo'lish xavfi oshib boradi. Psevdoeroziya o'z navbatida :

- glandular/follikulyar(ularda glandular yo'llar, kistalar mavjud);
- papiller(yallig'langan joyda papilla kuzatiladi)
- aralash.

## **Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi**

Ba'zi hollarda ginekolog yosh yoki o'smir qizlarni tekshirganda,bachadon bo'ynida silindrik epiteliy siljishini aniqlaydi, kolposkopyada esa u yorqin qizil rangga bo'yaladi. Bu xavfli holat emas, chunki u amalda onkologik kasallikka aylanmaydi. Bu eroziyaning tug'ma turidir.

Bachadon bo'yni eroziyasini davolash majburiy hisoblanadi, kasallikni operatsiyasiz davolash ham samara berishi mumkin. Bunda, avvalo, bemorlardagi kasallikning og'irlilik darajasi, kattaligi, shikastlanish tuzulishi, birgalikda kechayotgan kasalliklari inobatga olinadi. Yordamchi davolash sifatida, odatda, immunitetni oshiruvchi va umumiylar mustahkamlovchi dorilar tayinlanadi. Agar patalogiya erta bosqichda bo'lsa, uni jarrohiksiz ham davolash mumkin,ammo ba'zi bachadon eroziysi hollari jarrohlik yordamida davolashni talab qiladi, ular hozirgi kunda bir nechta samarali usulda olib boriladi:

**1.Lazerli olib tashlash**-hozirgi kunda eng zamonaviy hamda eng samarali usullardan biridir. Chunki u sog'lom to'qimalarga zarar yetkazmasdan yuqori darajadagi aniqlik bilan kesish imkonini beradi,natijada operatsiya joyi tezda (4-6 haftagacha) chandiqlanmasdan bitadi. Odatda, bu usul ilgari tug'magan ayollarga tavsija qilinadi.

**2.Kriodestruksiya**-bachadon bo'yniga suyultirilgan azot bilan ishlov berish, ya'ni muzlatish bilan davolashni nazarda tutadi. Sovuq harorat ta'sirida to'qima hujayrasidagi suv kristallanadi, natijada zararlangan sohaning hujayraviy tuzilmasi buziladi. Bunday davolashda tuzalib ketish 8-10 haftani tashkil etadi, lekin keyin bemor uzoq muddat shifokor nazorati ostida bo'ladi, chunki nosog'lom hujayralar bilan birga sirt qatlamiga ham zarar yetishi mumkin.

**3.Diatermokoagulyatsiya**-bachadon bo'yni eroziyasini yuqori chastotali elektr toki bilan kuydirish. Bu ayollar konsultatsiyasida patalogiyani davolashning eng keng tarqalgan usuli,ammo u juda og'riqli bo'lib,keyinchalik chandiq hosil bo'ladi. Bunday davolash farzandlari bo'lgan va tug'ishni rejalashtirmayotgan ayollarga ham mos keladi.

**4.Radioto'lqinli davolash**-eroziya sohasiga radioto'lqinlarning yuqori energiyasi bilan ishlov beriladi va to'qimaga hech qanday bosim tushmaganligi

sabab ular minimal darajada zararlanadi. Kuyish holati umuman kuzatilmaydi, sababi,bu usul zararlangan hujayralardagi suv molekulalari bug'lanishiga asoslanadi. Natijada chandiq shakllanmaydi va tuzalish vaqtি 3-5 haftani tashkil etadi. Bu usul og'riqsiz hisoblanadi.

**5.Elektroekstsiziya**-bachadon bo'yni zararlangan hududini maxsus elektr tig' yordamida kesib tashlashni nazarda tutadi.

**6.Kimyoviy koagulyatsiya**-bu usulda zararlangan bachadon bo'yni sohasiga kasal hujayralarni yemirishga qaratilgan maxsus preparatlar bilan ishlov beriladi.Bu muolajada keyin chandiqlar hosil bo'lmaydi, shuning uchun bu davolash usuli tug'magan ayollarga ham mos keladi.

Tug'magan ayollarda bachadon bo'yni eroziyasini davolash shart emas degan fikr mavjud. Agar bachadon bo'yni eroziyasi hajmi kichik bo'lsa, ba'zi hollarda bu fiziologik norma hisoblanadi, lekin bugungi kunda barcha sharoitlar borligi sabab, eroziyani davolashni kechiktirmaslik lozim. Bachadon bo'yni eroziyasi bilan og'rigan bemorlar bachadon bo'yni saratoni rivojlanishini istisno qilish uchun har yili kamida 1-2 marta ginekolog tekshiruvidan o'tishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda eroziya samarali davolanmoqda.Shu sababli uni uy sharoitida mustaqil davolashga,xalq tabobati vositlarini qo'llashga hojat yo'q, ular mavjud vaziyatni yanada og'irlashtirishi mumkin.

### **Foydalanilgan adadbiyotlar:**

1. F M Ayupova,Y.K Jabborova -,,Ginekologiya''2008-yil
2. M.F.Ziyayeva,G.X Mavlyanova ,,,Ginekologiya'' darslik 2-nashr 2008-yil
3. Med360.uz-tibbiy portal
4. med24.uz sayti

